

## KELAJAGIMIZ QO'LIDA BO'LGAN SHAXSLAR TARBIYASI HAQIDA

Rustamqulova Madina Ihtiyor qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Kiberxavfsizlik fakulteti talabasi

E-mail: madinarustamqulova01@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqola inson hayotida asosan, yoshlar tarbiyasida liderlik shaxsiyatining rivojlantirish haqida.

**Kalit so'zlar:** Ota-on, Ishonch, E'tibor, Lider shaxsiyati. Eleonora Ruzvelt hayotiy mahorati, Brayen Treyslining Lider shaxsiyati asari.

### ABOUT THE EDUCATION OF PEOPLE ENTRUSTED WITH OUR FUTURE

**Abstract:** The article is mainly about the development of leadership personality in human life, in youth education.

**Keywords:** Life skills of Eleanor Roosevelt, "Lider personality" by Brian Tracy's. Parents, Trust, Attention, Lider Personality

Hayot. Har bir inson dunyoga kelganidan boshlab,to umrining ohirigacha uning yahshi yomon kunlarini birma bir bosib o'tadi. Bu qiyinchiliklarning har qaysisidan o'ziga yarasha saboq chiqarib, ko'proq ma'lumotlarni egallahsga, chekinmaslikga faqat va faqat oldinga intilishga,o'z shaxsiyatiga ishonch bilan qarashga o'r ganib boradi.Har bir inson hayotda o'z o'rnini topishida,o'ziga ishonch bilan dunyoga nazar solishida eng avvalo ota-onasining tarbiyasi, ularning ishonchi, yaqinlarining munosabati alohida ahamiyatga egadir. Shaxs komil inson bo'lib shakllanishida

tengdoshlari orasida lider (yetakchi) bo‘lishida bu munosib rol o‘ynaydi, alohida mas’uliyat hissini uyg‘otadi. Muvaffaqiyatli odamlarning eng muhim xususiyatlardan biri bu ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchidir. Boshqalarni boshqara oladigan liderlik qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsni o‘z ishiga, hayotiga mas’uliyat bilan yondashmaydigan inson sifatida tasavvur qilish bu juda mushkul holat. Shaxsiy mas’uliyat insonga yuqori darajadagi ishonch, o‘z qadr-qimmatini anglash va o‘z o‘zidan faxrlanish imkonini yaratadi. Ish faoliyati va hayot davomida turli mushkul vaziyatlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish – hayotning jilovidan mahkam tutish va voqelikni yaratish demakdir. Mening fikrimcha yosh avlodni komil inson-lider qilib shakllantirishda ularning ruhiyatida yuqoridagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish vas shu yo‘sinda tarbiya berish juda ham muhimdir. Brayan Treysning “Lider shaxsiyati” asarida “Haqiqiy lider (yetakchi) qanday bo‘lishi kerak?” degan savolga yanada aniqroq javob topishimiz mumkin. Asar ushbu so‘zlar bilan boshlanadi:”Hayotda sizga faqat ikkita yo‘l berildi: boshqalarga ta’sir o‘tkazish yoki boshqalarning sizga ta’sir o‘tkazishiga imkon berish! Haqiqatdan ham shunday, umrimiz davomida yoki boshliq bo‘lamiz, yoki bizga boshliq bo‘lgan insonlarga xizmat qilamiz, ularning so‘zlariga beihtiyor amal qilamiz. Bunda boshliqlar Lider shaxslardir. Yosh avlodni hayotda o‘z yo‘lini tanlashida, kerakli vaziyatlarda zarur qarorlar chiqarishda ham liderlik (yetakchilik) zarurdir. Inson o‘z orzu va maqsadlari yo‘lida jamiyatning yuksalishi uchun harakat qilishi, o‘rganishi va kelajakda insoniyat rivoji uchun o‘rganganlarini hayotga tadbiq qilishi lozim. Hayotimiz davomida guvohi bo‘lgan hech bir narsaga shunchaki qaramasligimiz zarur, Har bir inson o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashib, faqat eng zo‘ri bo‘lishga intilishi lozim. Eng zo‘ri deganda faqat ishdagi, yoki ko‘chadagi, o‘z hududingizdagisi emas, o‘z sohangiz bo‘yicha siz butun dunyodagi eng zo‘ri “lideri” bo‘ling. Bu har bir insonning qo‘lidan keladi. Faqatgina inson o‘zini o‘zi tarbiyalay bilishi, o‘z shaxsiga ishonch bilan qarashi, hech qachon qo‘rmasdan dadil qadam tashlay bilishi va o‘z navbatida dunyoviy bilimlarni chuqur va puxta o‘rganishi darkordir. Amerikalik jamoat arbobi Eleonora Ruzvelt aytganidek:” Kuch, jasorat va ishonch qo‘rquvning ko‘ziga tik qarashdan hosil bo‘ladi.

siz qila olmaydigandek tuyulgan narsalarni qilishingiz kerak". Dunyoga kelgan har bir shaxsning yuragida o't bo'ladi. Ana shu yuragimizdagи o'tni shunchaki so'lib qolishiga imkon bermasligimiz kerak. Biz uni yonib turgan alangaga aylantirib, issiq taftidan atrofdagilarga rohat bag'ishlashimiz kerak. Yoshlarimiz qalbidagi ana shu cho'g'larni alangaga aylantirib, tarbiyalash barcha ustoz-u ota onalarning balki, "Bir bolaga yeti mahalla ota ona"-deganlaridek butun xalqimizning qo'lidadir. Mening nazarimda insonni lider-komil inson qilib tarbiyalash ham bir san'at. Hozirgi kunda respublikamizda har tomonlama salohiyatl, kuchli bilimga ega yoshlar-liderlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Maktab, litsey, universitet yoshlari orasidan tanlab olinayotgan tabiiy yetakchilar-liderlar o'z tengdoshlariga turli yo'naliishlarda ko'mak berib, ularga o'rnak bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi tashkiloti ana shunday intiluvchan, tirishqoq, salohiyatl o'zbek kelajagining lider avlodlarini shakllantirishda qanot vazifasini o'tamoqda. Haqiqatdan ham hozirgi kunda biz kabi yoshlar birlashib, tom manoda ittifoq tuzib vatanimiz ravnaqi va kelajagi uchun harakat qilmoqda. Biz ana shunday fidoiy, qadamidan o't chaqnaydigan shijoatli o'zbek yoshlarini bemalol Vatanimiz Kelajagining Liderlari deb ayta olamiz. Zero, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek;" O'zbekiston- kelajagi yoshlar qo'lida."

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

I.A.Krimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari,

Brayen Treys:"Lider shaxsiyati" asari